
MARG'ILONDA "ATLAS BAYRAMI" BESHINCHI MILLIY MATOLAR FESTIVALI BO'LIB O'TADI

Joriy yil 20-22 oktyabr kunlari Marg'ilonda "Atlas bayrami" beshinchchi milliy matolar festivali bo'lib o'tadi.

Farg'ona viloyati hokimligi, YuNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi, "Hunarmand" uyushmasi, Marg'ilon shahar hokimligi tomonidan boshqa xalqaro hamkorlar bilan birgalikda tashkil etiladigan ushbu festival Marg'ilon ipakchiligining dovrug'ini dunyoga tanitishda, hunar va san'atga mehri baland insonlarning o'zaro fikr va tajriba almashishida muhim o'rinn tutishi bilan ahamiyatlidir.

23-24 sentyabr kunlari YuNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sara Noshadi boshchiligidagi taniqli mutaxassislar va ekspertlardan iborat delegatsiya Farg'ona viloyatiga keladi.

Tashrif davomida festivalni o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy masalalar yuzasidan viloyat hokimi Xayrullo Bozorov bilan uchrashuv o'tkazish rejalashtirilgan.

Ushbu festivalda Marg'ilonga Butunjahon hunarmandlar kengashi qarori bilan Hunarmandlar shahri maqomi berilishi kutilmoqda.

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-09-07 11:53:28